XALQ DEPUTATLARI SO'X TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

2022 - yil 10 - yanvar VI-45-6-11-159-K/22 So‘x tumani hokimligi

So‘x tumanining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2021 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-742-son Qonuniga muvofiq xalq deputatlari So‘x tuman Kengashi:

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2.O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2021 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-742-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, So‘x tuman mahalliy budjetining 2022 yilgi daromadlari **15 224,4 mln.so‘m** va xarajatlari **97 470,8 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **82 246,4 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3.So‘x tumanining mahalliy budjeti daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.Tumanning tuman budjetidan 2022 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.Tuman va viloyat budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma meyorlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Farg‘ona viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

6.Tuman mahalliy budjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7.Viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

8.2022 yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 919.1 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, tuman budjetlarining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

9.2022 yil uchun tumanning tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 247,0 mln. so‘mni 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10.Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda1 kv.m.

uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 9-ilovaga muvofiq;

11.O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

b) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi;

v) Quyidagi soliq turlari:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan soliq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar shahar va tumanlar budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi;

12.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Tojiboev), moliya bo‘limi (Iskandarov), Davlat soliq inspeksiyasi (Turaboev) tuman hokimliklari bilan birgalikda 2022 yilgi mahalliy budjetida belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

13.Belgilansinki:

tuman hokimliklari, mas’ul bo‘lim va tashkilotlar tomonidan 2022 yilda budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

14.Davlat soliq inspeksiyasi (Turaboev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri

hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

Yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

Aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish vazifasi yuklatilsin.

15. Tuman soliq inspeksisi (Turaboev), Tuman kadastr bo‘limi (Nozirov) 2022 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasinlar.

16.Tuman soliq inspeksisi(Turaboev), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi hamda tuman hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

17.Majburiy ijro byurosi So‘x tuman bo‘limi (Shodiev),Tuman soliq inspeksiyasi (Turaboev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

18.Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash boshlig‘i (Turaboev), tuman jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsinlar.

19.Qonunning 13-moddasiga muvofiq:

tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha Qonunning 6-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan;

tumanlar va shaharlar hokimliklari choraklar yakuni buyicha maxkur qarorning 5-ilovasila keltirilgan daromadlarning prognoz kursatgichlari tumanlar va shaharlar hokimliklarining faoliyatiga bog‘liq bulmagan holda 5-foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yil oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan murojaat qilishi to‘g‘risidagi belgilangan tartibga amal qilsinlar.

20.Tuman budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

21.Bunda, tuman xalq deputatlari, tuman hokimliklari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga ma’sulligi belgilab qo‘yilsin.

22.Tumanning tuman budjetlarining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar tegishli ravishda xalq deputatlari tuman Kengashlari tomonidan tuman hokimliklarining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinsin.

Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar tegishincha tuman hokimligi tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

23.Tuman hokimliklari tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy budjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

24.Tuman hokimliklari, budjet mablag‘lari taqsimlovchilari hamda mas’ul tashkilotlar:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish, rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli ravishda majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borsin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarida ularning natijalarini joylashtirib

borilishini ta’minlasin.

25.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Tojiboev), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi va tegishli tashkilotlar rahbarlari:

Budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

tegishliligi ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga kiritib borilishini ta’minlasin.

26.Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

27.Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

28.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29. Mazkur qarorni ijrosini ta’minlashni nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Maxalliy budjet, iqtisodiy isloxatlarni amalga oshirish invistisyalarni va tadbirkorlarni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyalari va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **С.Сайидмусаев**

Халқ депутатлари Сўх туман
Кенгашининг
2022 йил 10 январдаги
VI-45-6-11-159-K/22-сон қарорига
1-илова

Xalq deputatlari

So‘x tuman Kengashining

2021 yil «____» _____dagi

_____-sonli qaroriga

1-ilova

So‘x tumani mahalliy budjetining daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

минг.сўм

№	Daromadlar nomi	Ajratma me’yori	So‘x tumani
I.	**Tartibga soluvchi daromadlar**		**0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		*0*
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i		*0*
II.	**Biriktirilgan daromadlar**		**2 357 400**
	To‘liq tuman mahalliy bюdjetiga		**1 334 000**
1	Korxonalar aylanmasidan soliq	100	765 000
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	100	30 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100	223 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	100	303 000
5	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	100	13 000
	Viloyat va tuman mahalliy bюdjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar		**1 023 400**
1	Qurilish materiallari bo‘yicha er qaridan foydalanganlik uchun soliq	*100*	*71 000*
2	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel ёqilg‘isi va gaz realizaцiya qilishdagi akцiz solig‘i	*20*	*227 400*
3	ЮOridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*50*	*79 500*
4	ЮOridik shaxslardan undiriladigan er solig‘i	*50*	*634 000*
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*50*	*11 500*
III.	**Mahalliy bюdjet daromadlari prognozi**		**2 357 400**
IV.	**O‘tkazib beriladigan daromadlar**		**12 867 000**
	Aholi soni (ming.kishi) 01.07.2021 holatiga		*80*

14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo		4 869 000
15	Mobil aloqa xizmatini ko‘rsatganlik uchun akцiz solig‘i		2 774 000
16	Tamaki mahsulotlari bo‘yicha akцiz solig‘i		5 224 000
V.	**Mahalliy bюdjetlarning jami daromadlari**		***15 224 400***
VI.	**Mahalliy bюdjetlarning jami xarajatlari**		**97 470 834,0**
VII.	**Transfertlar**		**82 246 434**

Халқ депутатлари Сўх туман
Кенгашининг
2022 йил 10 январдаги
VI-45-6-11-159-K/22-сон қарорига
2-илова

Xalq deputatlari

So‘x tuman Kengashining

2021 yil «____» _____dagi

_____-sonli qaroriga

2-ilova

2022 yil uchun So‘x tumanining tuman bюdjetidan bюdjet tashkilotlariga ajratilgan mablag‘larining kiritilgan o‘zgarishlar bilan cheklangan miqdorlari

ming so‘m

Ko‘rsatkichlar		**So‘x tumani**
	XARAJATLAR-JAMI	**97 470 834**
1.	**IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLAShGA XARAJATLAR - JAMI**	**73 434 741**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	17 008 845
	- maktabgacha ta’lim	10 338 762
	- umumiy ta’lim	6 670 083
1.2	Sog‘liqni saqlash	29 410 639
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	3 522 115
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 517 685
	- sport	2 004 430
1.5	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensaцiyalar	23 457 606
1.14	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	35 536
2.	**IQTISODIËTGA XARAJATLAR**	**8 087 618**
	shu jumladan:	
2.3	Obodonlashtirish	6 832 160
2.16	Veterinariya qo‘mitasi	683 458
2.17	Mahalliy bюdjetlarda hokim ërdamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	572 000
3.	**MARKAZLAShTIRILGAN INVESTIIЦIYaLARNI MOLIYaLAShTIRIShGA XARAJATLAR**	**0**
4.	**DAVLAT BOShQARUV ORGANLARINI SAQLASh**	**6 974 278**
	shu jumladan:	
4.1	Davlat xokimiyati organlari	
4.2	Davlat boshqaruv idoralari	6 974 278
5.	**FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOShQARISh ORGANLARINI SAQLASh**	**2 474 469**
6.	**Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari**	**867 203**
7.	**Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari**	**71 954**
6.	**ZAHIRA JAMG‘ARMASI**	**919 103**
7.	**BOShQA XARAJATLAR**	**4 641 468**
	shu jumladan:	

7.3	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	4 641 468
	JAMI MAHALLIY DAROMADLAR	**15 224 400**
	TRANSFERT	**82 246 434**

Халқ депутатлари Сўх туман
Кенгашининг
2022 йил 10 январдаги
VI-45-6-11-159-K/22-сон қарорига
3-илова

Xalq deputatlari

So‘x tuman Kengashining

2021 yil «____» _____dagi

_____-sonli qaroriga

3-ilova

2022 yil uchun bюdjet daromadlarining mahalliy bюdjetlar o‘rtasida taqsimlanishi bo‘yicha

ajratma me’ërlari

foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Korxonalar aylanmasidan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	fOridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i	Benzin, dizel ёqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizaciya qilishdagi akцiz soliq	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan er solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	fOridik shaxslar er solig‘i	fOridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
1	So‘x tumani	100		100		20	100	100	50	100	50	50	50

Халқ депутатлари Сўх туман
Кенгашининг
2022 йил 10 январдаги
VI-45-6-11-159-K/22-сон қарорига
4-илова

Xalq deputatlari

So‘x tuman Kengashining

2021 yil «____» _____dagi

_____-sonli qaroriga

4-ilova

So‘x tuman mahalliy bюdjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

№	**Hudud nomi**	**Daromad**	**Xarajat**
JAMI		**15 248 900,0**	**97 470 834,0**
1	So‘x tumani	15 248 900,0	97 470 834,0

Халқ депутатлари Сўх туман
Кенгашининг
2022 йил 10 январдаги
VI-45-6-11-159-K/22-сон қарорига
5-илова

Xalq deputatlari

So‘x tuman Kengashining

2021 yil «____» _____dagi

_____-sonli qaroriga

5-ilova

So‘x tuman mahalliy bюdjetining 2022 yilgi юqori bюdjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi bюdjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

№	**Shahar va tumanlar**	Tartibga soluvchi transfert miqdori jami
	JAMI	**82 221 934**
1	So‘x tumani	82 221 934

Халқ депутатлари Сўх туман
Кенгашининг
2022 йил 10 январдаги
VI-45-6-11-159-K/22-сон қарорига
6-илова

Xalq deputatlari

So‘x tuman Kengashining

2021 yil «____» _____dagi

_____-sonli qaroriga

6-ilova

2022 yilda So‘x tuman mahalliy bюdjetida aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan эng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	So‘x tumani	247 000,0

Халқ депутатлари Сўх туман
Кенгашининг
2022 йил 10 январдаги
VI-45-6-11-159-K/22-сон қарорига
7-илова

Xalq deputatlari

So‘x tuman Kengashining

2021 yil «____» _____dagi

_____-sonli qaroriga

7-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan erlar uchun юridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilaётgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koэffiцientlar

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Koэffiцient (0,5 dan 2 gacha)**	**Er solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (ming.so‘m)**
1	So‘x tumani	1,00	29 000,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan юridik shaxslar uchun er solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koэffiцentlarni belgilash huquqiga эga.

Халқ депутатлари Сўх туман
Кенгашининг
2022 йил 10 январдаги
VI-45-6-11-159-K/22-сон қарорига
8-илова

Xalq deputatlari

So‘x tuman Kengashining

2021 yil «____» _____dagi

_____-sonli qaroriga

8-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini юritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan erlardan tashqari) mutloq miqdorda

1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilaëtgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koэffiцientlar

So‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Koэffiцient (0,5 dan 2 gacha)**	**Er solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (so‘m)**
1	So‘x tumani	1,00	260,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun er solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koэffiцentlarni belgilash huquqiga эga.

Халқ депутатлари Сўх туман
Кенгашининг
2022 йил 10 январдаги
VI-45-6-11-159-K/22-сон қарорига
9-илова

Xalq deputatlari

So‘x tuman Kengashining

2021 yil «____» _____dagi

_____-sonli qaroriga

9-ilova

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilaëtgan kamaytiruvchi

koэffiцientlar

T/r	**Hudud nomi**	**Koэffiцient (0,5 dan)**	**Minimal miqdor 2022 yil uchun (ming.so‘m)**
1	So‘x tumani	0,60	600,0

Халқ депутатлари Сўх туман
Кенгашининг
2022 йил 10 январдаги
VI-45-6-11-159-K/22-сон қарорига
10-илова

Xalq deputatlari

So‘x tuman Kengashining

2021 yil «____» _____dagi

_____-sonli qaroriga

10-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan erlar uchun юridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilaëtgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koэffiцientlar

Ming so‘mda

T/r	**Shahar va tuman nomi**	**MFY lar nomi**	**Koэffiцient (0,7 dan 3,0 gacha)**	**Er solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)**
1	So‘x t	Rovon MFY	1,20	34 800
2	So‘x t	Istiklol MFY	1,15	33 350
3	So‘x t	Navobod MFY	1,00	29 000
4	So‘x t	Tarofatli Shaxarcha	1,15	33 350
5	So‘x t	Oftobru	1,00	29 000
6	So‘x t	Sarikanda	1,15	33 350
7	So‘x t	Saribozorcha	1,15	33 350
8	So‘x t	Kal’a	1,15	33 350
9	So‘x t	Xazrati ali	1,15	33 350
10	So‘x t	Lenburg	1,15	33 350
11	So‘x t	Tul	1,10	31 900
12	So‘x t	Kalacha	1,10	31 900
13	So‘x t	Devayron	1,10	31 900
14	So‘x t	Soxibkor	1,10	31 900
15	So‘x t	Gaznov	1,10	31 900
16	So‘x t	Chashma	1,00	29 000
17	So‘x t	Zangat	1,00	29 000

18	So‘x t	Demursad	0,90	26 100
19	So‘x t	Guliston	0,90	26 100
20	So‘x t	Chumokcha	1,10	31 900
21	So‘x t	Sux (Obishir)	1,10	31 900
22	So‘x t	Mulgon	1,10	31 900
23	So‘x t	Xushër	0,70	20 300
24	So‘x t	Sharkobod	0,70	20 300
25	So‘x t	Kizilkik	0,70	20 300
26	So‘x t	Sebzor	0,70	20 300
27	So‘x t	Kakir	0,70	20 300

Халқ депутатлари Сўх туман
Кенгашининг
2022 йил 10 январдаги
VI-45-6-11-159-К/22-сон қарорига
11-илова

Xalq deputatlari

So‘x tuman Kengashining

2021 yil «____» _____dagi

_____-sonli qaroriga

11-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini юritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan erlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilaëtgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koэffiцientlar

So‘mda

T/r	**Shahar va tuman nomi**	**MFY lar nomi**	**Koэffiцient (0,7 dan 3,0 gacha)**	**Er solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 kv uchun)**
1	So‘x t	Rovon MFY	1,20	312,0
2	So‘x t	Istiklol MFY	1,15	299,0
3	So‘x t	Navobod MFY	1,00	260,0
4	So‘x t	Tarofatli Shaxarcha	1,15	299,0
5	So‘x t	Oftobru	1,00	260,0
6	So‘x t	Sarikanda	1,15	299,0
7	So‘x t	Saribozorcha	1,15	299,0
8	So‘x t	Kal’a	1,15	299,0
9	So‘x t	Xazrati ali	1,15	299,0
10	So‘x t	Lenburg	1,15	299,0
11	So‘x t	Tul	1,10	286,0
12	So‘x t	Kalacha	1,10	286,0
13	So‘x t	Devayron	1,10	286,0
14	So‘x t	Soxibkor	1,10	286,0
15	So‘x t	Gaznov	1,10	286,0
16	So‘x t	Chashma	1,00	260,0

17	So‘x t	Zangat	1,00	260,0
18	So‘x t	Demursad	0,90	234,0
19	So‘x t	Guliston	0,90	234,0
20	So‘x t	Chumokcha	1,10	286,0
21	So‘x t	Sux (Obishir)	1,10	286,0
22	So‘x t	Mulgon	1,10	286,0
23	So‘x t	Xushër	0,70	182,0
24	So‘x t	Sharkobod	0,70	182,0
25	So‘x t	Kizilkik	0,70	182,0
26	So‘x t	Sebzor	0,70	182,0
27	So‘x t	Kakir	0,70	182,0